

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ERK MUXTORIYATI (PARTY AUTONOMY) PRINSIPIGA TASHQI TA'SIRLAR. FORS-MAJOR HOLATLARINING HUQUQIY TAHLILI HAMDA ERK MUXTORIYATI PRINSIPIGA TASHQI TA'SIRI

Xatamjonova Gulsanam Yasharjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0001-8553-0315

gkhatamjonova@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquq ishtirokchilari tomonidan erk muxtoriyati asosida tuziladigan arbitraj kelishuv bitimlarining ahamiyati, arbitraj kelishuvlarining tuzilishi o'rganib chiqilgan. Shuningdek arbitraj kelishuv bitimlari uni tuzuvchilar tomonidan ular amal qiladigan, ya'ni ular o'rtasida nizo yuzaga kelganida qo'llaniladigan huquq ham ko'rsatilganida, bunday shartnomalar o'z uchun o'zi yetarli bo'lgan arbitraj bitimi (self-sufficient arbitration agreements) deb hisoblanishi muhokama qilingan. Bunday arbitraj bitimlari o'z ichida taraflar o'rtasida munosabatlarning yuritilishiga oid hattoki nizolarning hal etilishiga oid ham har qanday qoidalarini o'z ichiga oladi.*

Maqolada erk muxtoriyati prinsipi taraflarning erkiga imkoniyat berganligiga qaramasdan, prinsipning cheklanishi mumkinligi aytib o'tilib bunday cheklovlar maqolada prinsipga tashqi ta'sirlar deb nomlanadi. Ushbu tashqi ta'sirlarga olib keluvchi holatlar ham, tashqi ta'sirlarning turlari ham qonunchilik manbaalari asosida tahlil qilinadi.

Arbitraj kelishuv bitimlarini tuzuvchilar ko'p holatlarda fors-major holatlarini o'z mamlakatlari qonunlari yoki o'zlari tanish bo'lgan mamlakat qonunlari asosida hisobga olishlari, ammo har bir mamlakat qonunchiligi tomonidan fors-major holatlari turlicha baholanishi hamda uning oqibatlari arbitraj kelishuvi bitimi tuzuvchilarga ta'sir ko'rsatishi mamlakatlar qonunchiligi, xalqaro hujjatlar shuningdek transmilliy qonunchilik asosida o'rganib chiqiladi.

***Kalit so'zlar:** nizolar uchun qo'llaniladigan huquq, o'z-o'zi uchun yetarli arbitraj bitimi, arbitraj tarkibli shartnomalar, tashqi ta'sirlar, cheklovchi omillar, yopiq aylana, taraflar avtonomligi, fors-major, transmilliy qonunlar, savdo –sotiq odatlari (lex mercatoria).*

LIMITATIONS TO PARTY AUTONOMY IN PRIVATE INTERNATIONAL LAW. LEGAL EXAMINATION OF FORS – MAJEUR AS A LIMITATION TO PARTY AUTONOMY

Khatamjonova Gulsanam Yasharjon kizi

PhD student in Tashkent State University of Law

Annotation. In this scientific work, the importance of arbitration agreements and drafting of them will be investigated thoroughly. The examination of self-sufficiency of arbitration agreement will be analyzed as well as the details that must be included to make a self-sufficient arbitration agreement. A self-sufficient arbitration agreement includes all the aspects to handle legal relationships between parties, even resolution ways when a dispute arises between them.

The article proves that the principle is not exempt from limitations, even though the purpose of it is to provide autonomy to parties. The article discusses what drags the principle to limitations and the types of limitations to the principle based on diverse legislation.

Fors – majeure is an event that every legislation has own its distinct definition with special forms of consequences. As a result, parties might not acquire what they expect from the agreements because of diversity of legal systems. The impact of *fors majeure* to parties is to analyze in this work.

Keywords: the governing law, a self-sufficient agreement, contracts with arbitration part, limitations to the principle, a closed circuit, autonomy of parties, *fors-majeur*, transnational laws, *Lex-mercatoria*.

ОГРАНИЧЕНИЯ ПАРТИЙНОЙ АВТОНОМИИ В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ. ЮРИДИЧЕСКАЯ ЭКСПЕРТИЗА FORS-МАЖЕУР КАК ОГРАНИЧЕНИЕ ПАРТИЙНОЙ АВТОНОМИИ

Хатамжонова Гульсанам Яшаржон кызы

Докторант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной научной работе будет тщательно исследовано значение арбитражных соглашений и их составление. Будет проанализирована проверка самостоятельности арбитражного соглашения, а также детали, которые должны быть включены для заключения самостоятельного

арбитражного соглашения. Самодостаточное арбитражное соглашение включает в себя все аспекты регулирования правоотношений между сторонами, даже способы разрешения спора, возникающего между ними.

В статье доказывается, что принцип не свободен от ограничений, хотя целью его является предоставление автономии сторонам. В статье рассматривается то, что тянет принцип к ограничениям и виды ограничений принципа, основанные на разнообразном законодательстве.

Форс-мажор — это событие, которое в каждом законодательстве имеет свое четкое определение с особыми формами последствий. В результате стороны могут не получить того, что они ожидают от соглашений, из-за разнообразия правовых систем. Влияние форс-мажора на стороны и предстоит проанализировать в данной работе.

***Ключевые слова:** применимое право, самодостаточное соглашение, договоры с третьей частью, ограничение принципа, замкнутый круг, автономия сторон, форс-мажор, транснациональные права, Lex-mercatoria.*

Kirish

Xalqaro xususiy huquq doirasida shartnomalar asosan standardlashtirilgan uslubda tuziladi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa shartnoma tuzuvchilarning shartnomalar sharhlanishi va amalga oshirishini o‘z qo‘lida saqlab qolishdir.”Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish yuzasidan Nyu York Konvensiyasi” qoidalariga asosan, ayrim xalqaro shartnomalar o‘z tarkibida arbitraj qismlarini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday shartnomalar arbitraj shartnomalari yoki arbitraj tarkibli shartnomalar deb yuritiladi [1]. Shartnoma tuzuvchilar nizolarni arbitrajga topshirish to‘g‘risida kelishishi shartnoma yuzasidan vujudga keladigan har qanday nizolarni hal etishda shartnomalashuvchilar milliy sudlar vakolatini rad etib nizolarni hal etishni arbitraj vakolatiga topshiradilar [2]. Shartnoma tuzuvchilar uchun standard qoliplarning mavjudligi taraflarga shartnomaning o‘zi taraflar munosabatini hal etish uchun *yeterli (self - sufficient)* bo‘lishini taminlaydi. Yeterlilik xususiyati shartnomalarga milliy sudlar vakolatining chiqarib tashlanishi bilan belgilanadi. Agar shartnomada taraflar nizolar yuzaga kelganida nizolarni hal etish uchun tanlanadigan huquq to‘g‘risida bir qaror ko‘rsatilmaganida, nizolarni hal etish uchun yagona manbaa shartnomaning o‘zi bo‘lib hisoblanadi [3]. Shartnomalashuvchilar aniq va barcha jihatlarini o‘z ichiga olgan shartnoma tuzish bilan milliy sudlarning shartnomaga tashqi tasirini imkon qadar kamaytiradi. Aksaran hollarda, shartnoma tuzuvchilar shartnomadan mumkin qadar ko‘proq foyda ko‘rish uchun shartnomani mukammal holda tuzishga va shartnomaga tashqi tasir ko‘rsatuvchi omillarni kamaytirishga

harakat qiladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, erk muxtoriyati prinsipi ham tashqi tasirlar aralashuvidan butkul himoyalangan. Shartnoma tuzuvchilar o'rtasida quyidagi holatlar vujudga kelganida shartnomaga tashqi ta'sir vujudga kelishi mumkin:

Shartnoma tuzuvchilar o'rtasida kelishuvga erishilmagan hollarda;

Shartnoma tuzuvchilar shartnomani turlicha tushunganlarida;

Shartnoma uchinchi shaxs manfaatlariga zid kelgan hollarda;

Mamlakatlarning ommaviy siyosat tamoyillariga zid kelgan hollarda.

Xalqaro tijorat arbitraji taraflarning ixtiyoriga asosan nizolarni hal etishning muqobil vositasidir. Taraflar nizolarni hal etish uchun arbitraj kelishuvlarini tuzganlarida bunday nizolarda milliy sudlarning aralashuvi rad etiladi. Yagona nizolarni hal etish vakolati taraflar tomonidan tanlangan arbitraj mexanizmiga taqdim etiladi [4]. Agar taraflar tomonidan shartnomada nizolarni hal etish uchun arbitraj ko'rsatilmaganida nizolar yurisdiksiyasi mavjud sudlar tomonidan ko'rib hal etiladi. Nizolarni hal etish uchun arbitraj o'ziga tegishli vakolatni faqatgina taraflarning ixtiyori asosida olishi mumkin. Shuningdek taraflar arbitraj joyini, arbitraj protseduralarini ham tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada, taraflar tomonidan o'z ixtiyorlari asosida **yopiq aylana** hosil bo'ladi [5]. Mazkur yopiq aylana doirasida taraflar harakatlanganida ular tashqi tasirlardan himoyalana oladilar. Ya'ni, taraflar faqatgina o'z shartnomalarida ko'rsatilgan qoidalar asosida harakatlanganlarida ular faoliyatlari doirasidan chetga chiqmaydi lekin shartnomada ko'rsatilmagan harakatlar amalga oshirilganida esa taraflar vakolatlaridan chetga chiqilib tashqi tasirlarning aralashuvi uchun muhtojlik yuzaga kelishi mumkin [6]. Shartnoma tuzuvchilar o'z shartnomalari asosida harakatlanganlarida hech bir milliy sudlar yoki boshqa mexanizmlar taraflar vakolatiga tashqi tasir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Shu sababdan ham, arbitraj taraflar o'rtasidagi xususiy munosabatlar yuzasidan vujudga keladigan masalalarni hal etuvchi xususiy mexanizm ekanligini ko'rsatadi. Misol uchun, "Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish yuzasidan Nyu York Konvensiyasi" qoidalariga asosan nizolar arbitrajda ko'rilganida arbitraj qarori yutqazgan taraf tomonidan bajariladi va bunda taraflarning faqatgina o'z xohishlari asosida qayd etgan shartnomaviy majburiyatlari yutqazuvchi tarafga arbitraj qarorini bajarishni yuklaydi. Yutqazuvchi taraf arbitraj qarorini bajarganida, hech bir boshqa mexanizm yoki milliy sudlar mamlakat raqobat qonunlarini buzish yoki nizolarni hal etish uchun tanlangan mamlakat qonunlariga asosan shartnomaning haqiqiy emasligini ko'rsatib yutqazgan tarafni arbitraj qarorini bajarishdan ozod etish vakolati mavjud emas. Ammo yutqazuvchi taraf o'z ixtiyori asosida arbitraj qarorini bajarmaganida, nizolarga yurisdiksiyasi mavjud sudlarning aralashuvi imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada, taraflar shartnomasi asosida yaratilgan yopiq aylanaga tashqi tasirning

aralashuvi yuz beradi. Aynan shu holat erk muxtoriyati pirinsipining birinchi cheklanishi deb baholanadi [7].

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotdagi asosiy masalalar bilan birgalikda mamlakatlar ommaviy siyosatining arbitraj kelishuv bitimlariga ta'sir ko'rsatishi hamda fors-major holatlarining turli mamlakatlar qonunchiligi bilan sharhlanib ularning huquqiy oqibatlarini muhokama qilinadi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning talilii, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sudlarning shartnomalashuvchi taraflarning munosabatlariga tashqi tasirining qonuniy mexanizmi har bir mamlakat qonunchiligi bilan belgilangan bo'ladi. Ammo Xalqaro maydonda arbitraj qarorlarining tan olinishi yoki ijroga qaratilishi, shuningdek arbitraj qarorlari taraflar tomonidan ixtiyoriy asosda bajarilmaganida, arbitraj qarorlarining qay tartibda amalga oshirilishi tartibi,"Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish yuzasidan Nyu York Konvensiyasi" qoidalari asosida amalga oshiriladi. Mazkur Konvensiya yurisdiksiyasi mavjud sudlarga arbitraj shartnomalarini tan olish, taraflarning da'volarini qanoatlantirish yoki rad etish hatto arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish vakolatlarini taqdim etadi. UNCITRAL Model Qonuni ham Nyu York Konvensiyasi tomonidan qamrab olinmagan jihatlarni o'zida jamlab olib arbitrajga oid munosabatlarni tartibga solishda muhim instrument hisoblanadi. Mazkur muhim instrumentlar birgalikda taraflarning xohishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Arbitraj tribunali o'zining vakolatini taraflar shartnomasidan olsa, milliy sudlar o'z vakolatini shartnomada ko'zda tutilmagan holatlardan oladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek o'zi uchun yetarli bo'lgan (self - sufficient) arbitraj kelishuv bitimi asosida harakatlanayotgan arbitraj faoliyatining avtonomligi taraflarning xohishi va taraflarning qanchalik o'z shartnomalari asosida harakatlanishlariga bog'liq. Shunga qaramay, Nyu York Konvensiyasiga asosan taraflar shartnomasi mavjud bo'lgan hollarda ham, qanday munosabatlar arbitrajda ko'rilishi, shartnoma shartlari ommaviy siyosat tamoyillariga zid bo'lganida rad etilishi, shartnomaning majburiylik shartlari va protseduralarini ko'rsatishda ustun huquqqa ega bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan huquqlar shartnoma tuzuvchilar tomonidan shartnomalarida hisobga olinmaganida, shartnomalashuvchilarning munosabatlariga tashqi tasirning aralashuvi kuzatilishi mumkin [8].

Misol uchun, o'zbekistonlik va rossiyalik fuqarolar tomonidan Qozog'iston davlati qonunlari asosida nizolarni arbitrajda ko'rish uchun shartnoma imzolanganida, nizolar qozoq huquqi qonunlari asosida to'g'ri hal qilinib shartnoma shartlari buzilmaganida ham, taraflardan biri arbitraj qarori o'z mamlakati qonuniga asosan zidligini ko'rsatib arbitraj qarorini bajaramasa, taraflar tomonidan yaratilgan yopiq aylana buziladi va munosabatlarga tashqi tasirning aralashuvi lozim hisoblanadi. Negaki Nyu York Konvensiyasiga asosan arbitraj kelishuvlarida taraflarning xohishi birlamchi va taraflar ixtiyoriy arbitraj qarorlarini bajarmaganida arbitraj tribunalining taraflarga qarorini bajartirish vakolati mavjud emasligi hamda arbitraj qarorlarining majburiylikini ta'minlash milliy sudlar vakolatida ekanligi ko'rsatilgan. Bundan ma'lumki, taraflar arbitraj qarorlarini bajarmaganlarida ham yopiq aylanaga tashqi tasirning aralashuvi uchun imkoniyat hosil bo'ladi [9].

Shartnomaning shartlari taraflarning o'zlari erk muxtoriyati prinsipi asosida yaratgan yopiq aylanani saqlab qolish yoki unga tashqi ta'sirning aralashuvi uchun imkoniyat yaratib berishda eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi [10]. Shu bois ham shartnoma uzuvchilar aksaran hollarda shartnoma tuzishdan oldin shartnoma shartlarini kelishib olish uchun shartnoma huquqi mutaxassislari bilan maslahatlashib olishiga to'g'ri keladi. Nyu York Konvensiyasiga asosan, hattoki arbitraj institutlarining qarorlari quyidagi holatlarga asoslanib qabul qilingan bo'lsa ham tan olinish va ijroga qaratilishi mumkin:

Shartnomaning noto'g'ri talqini asosida;

Dalillarning noto'g'ri talqini asosida;

Nizo uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan huquqning yoki yurisdiksiyaning yanglish tanlanishi asosida;

Arbitraj instituti tomonidan qonunning noto'g'ri qo'llanilishi asosida.

Ushbu vakolat shartnoma tuzuvchilarga shartnoma shartlari butun munosabatlarni o'z nazorati ostida saqlashini ko'rsatadi. Ayrim holatlarda arbitraj jarayonlari taraflarning xohishi asosida yaratilgan yopiq aylana doirasida harakatlanishi prezumpsiyasi bilan taraflar tomonidan shartnomada nizolar uchun taalluqli qonun qoidalari buzib ko'rsatilgan bo'lsa ham arbitraj qarorlari taraflar tomonidan ixtiyorlari asosida bajarilishiga imkon beriladi [10]. Lekin ushbu vakolatlar ham arbitraj shartnomalari taraflarga mutlaq (absolyut) huquq beradi deb xulosa chiqarmasligimiz lozim.

Shartnomalashuvchi taraflar tomonidan shartnomaviy nizolarni hal etish uchun tanlangan huquq erk muxtoriyati prinsipining qamrovini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu omil taraflarga o'zlari shartnomadan kutgan natijalarini qo'lga kiritishiga imkon berishi yoki ular qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni

cheklashi mumkin [11]. Bu jihatdan, taraflar tomonidan tanlangan huquq erk muxtoriyati prinipining qamrovini cheklovchi ikkinchi omil hisoblanadi. Alohida e'tiborga olishimiz lozim bo'lgan jihatlar quyidagilar:

Avvalo, har qanday huquq emas, balki taraflar tomonidan shartnomaviy munosabatlar yuzasidan nizo kelib chiqqanida nizolarni hal etish uchun shartnomada ko'rsatilgan huquq. Bunda shartnomada ko'rsatilganlik belgisi aniqlovchi faktor hisoblanadi.

Ikkinchidan, shartnomada ko'rsatilgan huquq ham har qanday holatda emas, huquqning majburiy qoidalari bilan taraflarning manfaati kesishganida omma manfaatlari yuzasidan erk muxtoriyati prinsipi cheklanishi mumkin [12]. Ahamiyatlisi shundaki, bu yerda huquqning majburiy qoidalari tushunchasidir. Bu yerda huquqning majburiy qoidalari yanglish tushunilishi mumkin ammo bunda qoidalar taraflarning shartnoma shartlaridan ham majburiy ekanligini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shartnomalashuvchilar arbitraj kelishuvini tuzganlarida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan ikkinchi omil bu – nizolar uchun qo'llaniluvchi mamlakat huquqi [13]. Ma'lumki, mamlakat huquqlari va qonunlari bir huquqiy oilaga mansub bo'lishiga qaramasdan, bir – biridan farqlanadi. Shu boisdan ham, turli mamlakatlarda shartnomalar turlicha uslubda tuziladi hamda shartnoma tuzish uchun huquqiy texnika ham bir – biridan farqlanadi. Ushbu farqlanishni fors – major holatlari misolida ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

Har bir mamlakatning huquqi tomonidan o'ziga xos ravishda belgilanuvchi holatlardan biri bu – fors major holatlari. Dastlab, fransuz qonunchiligida paydo bo'lgan ushbu termin fransuz tilida “yuqori turuvchi kuchlar” ma'nosini anglatadi. Fransuz qonunchiligida taraflarning ixtiyoridan yuqori turuvchi kuchlar ta'sirida majburiyatlarining bajarishga imkonsizlik vujudga kelishini anglatadi. Majburiyatlar bajarilmay qolganligi uchun taraflarning javobgarligini inkor etadi.

Fors major holatlarining O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida yong'in, tabiiy ofat, urush, qamal kabi kutilmagan sharoitlarda tomonlardan qaysi bo'lsa ham o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmay qolgan vaziyat. Ikki tomon ham bu haqda oldindan kelishib oladi deb ko'rsatiladi.

Fors major holatlari mavjud bo'lganida shartnomalashuvchi taraflarning shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik bekor qilinadi. Bunda e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan jihat shuki, taraflarning o'z majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilgan kuch yengib bo'lmaydigan va oldi olib bo'lmaydigan bo'lishi lozim. Yengib bo'lmaydigan

kuch turlicha tushunilishi va sharhlanishi mumkin. Yengib bo'lmalik xususiyati huquq sistemasining majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikni tushunish nazariyasidan kelib chiqadi [14].

Fors major holatlari tufayli javobgarlikdan ozod qilishda turli mamlakatlar turli maqsadlarni ko'zlashi mumkin. Ingliz shartnoma huquqiga asosan, javobgarlikdan ozod qilish uchun taraflardan qay biri kutilmagan holatlar sodir bo'lishi tavakkalchiligiga yaqin turganligi bilan belgilanadi. German Fuqarolik Kodeksiga asosan esa tavakkalchilik emas, taraflarning fors major holati sodir bo'lgunicha amalga oshirgan harakatlari asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Fors – major holatlarida tavakkal qilishi lozim bo'lgan taraf sidqidildan harakat qilgan va harakatlariga qaramasdan sodir bo'lgan holatning oqibati uchun javobgar bo'lmaydi.

1977 – yildagi Insofsiz Shartnoma Shartlari to'g'risidagi Act (Unfair Contract Terms Act/ UCTA 1977) qoidalarida fors-major holatlari yuzasidan o'ziga xos amaliyot mavjud. Unga asosan taraflar shunchaki shartnomalarida fors-major holatlarida termini kiritishlari ular uchun hech qanday huquqiy oqibat tug'dirmaydi. Shuning uchun taraflar shartnomalarida ixtiyorlaridan tashqaridagi kuchlarning ehtimoliy kuchlarini hamda ularni aniqlab olish uchun detallarni ko'rsatgan holda fors-major holatlarini belgilashlari lozim. Mana shunday tartibda fors-major holatlari taraflar shartnomasida aks etganida, javobgarlik tavakkalchilik qilishi lozim bo'lgan taraf zimmasida bo'lishi ko'rsatiladi. Ushbu aktga asosan, ayrim holatlarda esa fors-major oqibatlari taraflar tomonidan tavakkalchilik qilishi lozimligidan kelib chiqib ikkiga bo'linadi. Lekin savdo – sotiq masalalarida yetkazib beruvchi tomonidan mahsulot yetkazib berilmaganida, sotib oluvchi oldidagi javobgarlik sotuvchi tomonida bo'ladi negaki yetkazib beruvchini tanlash sotuvchi tomonidan amalga oshirilgan. Bunda tavakkalchilik sotuvchi va yetkazib beruvchi o'rtasida taqsimlanmaydi. Sotib oluvchi bunday hollarda ko'rgan zararlarning qoplanishini sotuvchidan talab qilishga haqli.

Germaniya Fuqarolik Kodeksining 275 – moddasida fors – major holatlarining ta'rifi hamda oqibatlar uchun javobgarlik asoslari belgilangan. Ushbu Kodeksga asosan fors major sodir bo'lishining oldini olishi mumkin bo'lgan taraf javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Ushbu Kodeksda shuningdek fors major holatlarida taraflar javobgarlikdan ozod qilinish uchun o'zlarining ehtiyotsizlik bilan yoki qasddan harakat sodir etmaganlarini isbotlashlari lozimligi ham keltirilgan. Agar savdo munosabatlarida ham savdogar mahsulot yetkazib beruvchini ehtiyotkorlik asosida tanlaganini isbotlab berolmasa, javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Fors major holatlarining oqibati uchun javobgarlik ingliz qonunchiligiga amal qiluvchi mamlakatlarda yoki roman huquqi mamlakatlarida ham turlicha amal qiladi. Ingliz qonunchiligi (common law) mamlakatlari javobgarlikni belgilashda taraflarning ehtiyotkorlik bilan harakat qilganligi yoki ehtiyotsizlikka berilganligi omili birlamchi ahamiyat kasb etsa, Roman huquqi mamlakatlarida esa asosiy birlamchi maqsad taraflar uchun adolatli yechimga kelish hisoblanadi [15]. Shunga o'xshash tarzda, fors – major holatlari sababli xomashyo yetkazib beruvchi o'z vaqtida materiallarni yetkazib bermaganligi uchun sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi munosabatlarda sotuvchi sotib oluvchi oldida ingliz shartnoma huquqi qonunlariga asosan javobgarlikdan ozod qilinadi. Xuddi shunday holatlarda Norvegiyada 1988 – yilda qabul qilingan Norvegiya tovarlar savdosi to'g'risidagi Akt (Norwegian Sale of Goods Act/1988) ning 57 – moddasiga asosan esa sotuvchi sotib oluvchi oldida javobgar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yana bir nizolarni hal etish uchun tanlangan huquqning taraflarning shartnomaviy munosabatlariga ta'sirini taraflarning kelishuv bitimiga tanlangan huquqning ta'sirida ko'rishimiz mumkin. Taraflar tomonidan imzolangan kelishuv bitimi shartnomada nizolarni hal etish uchun tanlangan huquqqa qarab turli mamlakatlarda turlicha tushunilishi hamda sharhlanishi mumkin. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad taraflar tomonidan imzolangan yagona hujjat ularning kelishuvi deb tasdiqlanishi va bu kelishuv oldingi kelishuvlar bilan tasdiqlanmasligini taminlashdir [16]. Butun yagona hujjatning kelishuv bitimi bo'lishi esa bitimdan tashqari bo'lgan birorta manbaa yoki elementdan ajratishga xizmat qiladi. Taraflarning ko'zlangan maqsadlari esa hujjatda ko'rsatilmagan har qanday shart yoki majburiyatni bajarishning oldini olishdir [17]. Ko'p holatlarda taraflar shartnomani o'zlari uchun manfaatli qilib tuzrtishlari shuning bilan birgalikda o'zlari uchun taalluqli huquq manbaalarini ham o'z ehtiyojlari asosida tanlashlari mumkin.

Shunga qaramay, xalqaro tijorat shartnomalari tuzishga oid Xalqaro tijorat Shartnomalari yuzasidan UNIDROIT Prinsiplari (UNIDROIT Principles of International Commercial Contracts) asosida *tenglik, adolatlilik va boshqa tomonning huquqlarini suiste'mol qilmaslik* tamoyillariga amal qilishlari lozim. Bu esa taraflarning majburiyatlari faqatgina shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bilan cheklanib qolmasligi, ular tomonidan tanlangan huquqning umum tamoyillariga ham amal qilishi lozimligining isbotidir.

1999 – yildagi Shartnomalar yuzasidan umumiy qoidalar Akti (General Rules under Contracts Act/1999) asosan taraflar shartnomada ko'rsatilmagan lekin

shartnomaning amalga oshirilishi natijasida mamlakat qonunlari asosida vujudga kelgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi mumkin emas. Norvegiya shartnoma kodeksiga asosan (Norwegian Contract Code) shartnomada ko'rsatilmagan majburiyatlarni yuzaga kelganida, taraflar shartnomadan oldingi munosabatlariga taalluqli dalillarni ham majburiyatni bajarmaslik uchun keltirishlari mumkin. Germaniya Fuqarolik Kodeksi qoidalariga asosan esa taraflar shartnomadan oldingi munosabatlar oid hujjatlarni faqatgina shartnomada qayd etilgan shartlar va majburiyatlarni dalillash uchun keltirishlari mumkin. Shu sababli taraflar uchun majburiyatlar faqatgina kelishuvi bilan emas, balki shartnomada taraflar belgilagan nizolar uchun qo'llaniladigan huquq bilan ham yuklanishi mumkin.

Kelishuvlar ma'lum bir huquq qoidalari asosida sharhlanishi lozim. Faqat kelishuvning o'zida mavjud qoidalar uni sharhlash uchun yetarli hisoblanmaydi. Arbitraj tribunallari ayrim holatlarda kelishuv shartlari yetarli emasligi va kelishuv asosida qaror qabul qilish uchun tashqi manbaalarga murojaat qilishadi. Bunday hollarda kelishuvda nizolarni hal etish uchun tanlangan huquq va transmilliy huquqlar tashqi manbaa vazifasini bajarishi mumkin [18]. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, nizolar uchun tanlangan huquq taraflarning kelishuvda ko'rsatilgan imkoniyatlarini kamaytirib erk muxtoriyati prinsipini cheklashi mumkin. Quyida esa transmilliy qonunlar ham taraflarning imkoniyatni kamaytirib erk muxtoriyatini cheklovchi omili bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Arbitraj tribunallari faqatgina taraflarning kelishuvlari asosida arbitraj qarorini qabul qilish huquqiga ega. Ammo arbitraj tribunallari ham kelishuvni faqatgina kelishuvning o'zi bilan cheklash vakolati mavjud emas. Arbitraj tribunallari taraflarning aralashuvisiz arbitraj kelishuvini sharhlashi hamda arbitraj kelishuvda ko'zda tutilgan qoidalarni tanlangan huquq bilan o'zaro munosabatlarini aniqlashi mumkin [19]. Oqibatda bir kelishuv yoki shartnoma turli arbitraj tribunallari tomonidan turlicha sharhlanishi oqibatida erk muxtoriyati prinsipiga ta'sir etishi mumkin. Transmilliy qonunlar esa xalqaro tijorat shartnomalariga tanlangan huquqning g'ayrioddiy taraflari (peculiarities) bilan kelishmasdan kelishuv shartlarining amal qilinishiga imkon beradi.

Har bir mamlakatning qonunlari turlichaligi sababli biznes rivojini ko'zlab xalqaro tashkilotlar umumiylik tamoyili asosida transmilliy qoidalar ishlab chiqishmoqda. Ushbu qonunlar transmilliy qonunlar, lex mercatoria yoki soft huquq nomlari bilan yuritiladi [20]. Transmilliy qonunlar umumiylik rejimi asosida ishlaydi va taraflar tomonidan o'zlarining yopiq aylanasi saqlab qolish uchun nizolar uchun qo'llaniluvchi huquq sifatida kelishuvlarida belgilab qo'yilishi mumkin. Lekin transmilliy qonunlar aynan bir mamlakat qonunlaridek mukammal holatga hal

keltirilmagan. Misol tariqasida, transmilliy qonunlardan hisoblanuvchi Xalqaro Tijorat Shartnomalari uchun UNIDROIT Prinsiplarini keltirishimiz mumkin. Ushbu prinsiplarning asosi yaxshi ishonch (good faith) prinsipiga asoslangan. Lekin Yaxshi ishonch tamoyili ushbu transmilliy qonun tomonidan yetarlicha tushuntirib o'tilmagan va bu holat taraflarda muammolarni hal etishda noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin. Mana shunday noaniqliklar taraflarning kelishuvda ko'rsatib o'tilgan shartlarini turli taraflar tomonidan turlicha sharhlanishiga olib kelishi mumkin [21]. Ayni shu holat esa taraflarning bosh maqsadi bo'lgan erkinlik prinsipiga zid bo'lib qoladi [22]. Negaki xalqaro tijorat shartnomalari o'zlari yetarlilik xususiyatiga ega bo'lishi lozim agar shartnomalar tashqi manbaalar tomonidan ko'plab izohlarga muxtoj bo'lsa, shartnoma taraflarining mustaqilligini taminlay olmaydi. Har qanday tamoyilning yaxshi ishonch tamoyili ostida izohlanishi taraflarning bosh maqsadiga ziddir [23]. Ushbu harakter boshqa transmilliy qonunlarga ham taalluqlilidir. Ayrim holatlarda yaxshi ishonch tamoyili ularda iste'molchilar bilan yaxshi tijoriy munosabat o'rnatishni ham anglatadi. Lekin bu yerda ham yaxshi tijoriy munosabatning aniq huquqiy izohi transmilliy qonun bilan keltirib o'tilmagan. Bu ham o'z navbatida taraflar tomonidan kelishuvlarni o'z manfaati yuzasidan sharhlashga oqibatda esa taraflarning ko'zlagan bosh maqsadlariga zid natijalarni qo'lga kiritishlariga xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan xulosaga kelishimiz mumkinki, transmilliy qonunlar taraflar tomonidan kelishuvlarida nizolari uchun qo'llaniladigan qonun sifatida aniq bir mamlakat huquqi o'rniga keltirilishi mumkin. Ammo transmilliy qonunlar ko'plab masalalarda yaxshi ishonch tamoyiliga asoslanishi va izohlarning yetishmovchiligi bilan taraflarning kelishuvda ko'zlagan maqsadlaridan kamroq natija olishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Quyida esa fors-major holatlari sodir bo'lganida taraflarning javobgarligi masalasini transmilliy qonunlar asosida o'rganib chiqamiz.

Agar taraflar nizolari uchun aynan bir mamlakat huquqlarini tanlaganlarida, o'sha mamlakatning huquqlariga asosan fors-major holatlarida taraflarning javobgarligi masalasi rad etilishi mumkin edi. Oltimishdan ortiq mamlakatlar tomonidan imzolangan Xalqaro Tovarlar Savdosi Shartnomalari yuzasidan Vena Konvensiyasi (Vienna Convention on Contracts for the International Sale of Goods/ CISG) xalqaro tijorat shartnomalari yuzasidan munosabatlarni tartibga solishda eng asosiy manbaalardan biri hisoblanadi.

Shu Konvensiyaning 79 – moddasiga asosan agar taraflardan biri oldini olib bo'lmaydigan kuch ta'sirida o'zining majburiyatlarini bajara olmagan bo'lsa va shu holatni o'z kuchi bilan to'xtatishga qodir bo'lmaganini isbotlab berolsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Vena Konvensiyasidan taraflarning xolislik bilan hakatlanishi zarar ko'rgan taraf uchun majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinishiga yo'l qo'yilmasligi anglashiladi. Aslida Konvensiyada xolislik bilan harakat qilishga oid tushunchalar ham mavjud emas. Buyuk Britaniya qonunlariga asosan taraflar tomonidan majburiyatlarni yoki majburiyatlarni bajarmaslikdan kelib chiqqan zararni taqsimlashda xolis harakat qilgan tomon javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin [24]. Ammo Vena Konvensiyasida esa majburiyatlarni bajarmaganlik oqibatida zarar taqsimlanganida taraflar xolis harakat qilganlarida ham javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Vena Konvensiyasi tomonidan fors – major holatlarinin aniqlash uchun kriteriya sifatida taraflarning ixtiyorida bo'lmaganlik (beyond control) faktini keltiradi. Ammo ushbu Konvensiyadan ixtiyorida bo'lmaganlik fakti taraflarning harakatlari asosida yoki so'zlarning Grammatik ma'nosi asosida aniqlanishi uchun aniq xulosa berilmagan.

Taraflarning ixtiyorida bo'lmaganlik fakti Vena Konvensiyasini qabul qilgan davlatlarning turli huquqiy an'alaridan va sharhlovchilarning turli yondashuvlaridan har bir mamlakat uchun asosli qilib sharhlab olingan [25].

Norvegiya Vena Konvensiyasini qabul qilganidan so'ng taraflarning ixtiyorida bo'lmaganlik faktini abstract tushunishlardan holi saqlash uchun ushbu fakti taraflarning oldi olib bo'lmaydigan holatga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatiga qarab belgilash tizimini qabul qildi (qaysi qonunda shu tizim qabul qilinganligi ko'rsatilgan). Misol uchun, savdo – sotiq shartnomalariga asosan sotuvchi sotib oluvchiga mahsulotni o'z vaqtida mahsulotni yetkazib beruvchining aybi bilan topshirmaganida, sotuvchining javobgarligi bekor qilinmaydi. Bu holat sotuvchining nazorati ostidagi holat hisoblanadi [26]. Sotuvchi sotib oluvchi oldida javobgar bo'ladi.

Xulosa shuki, transmilliy qonunlar fors-major holatlari uchun standardlashtirilgan izohlari aynan bir mamlakat qonunlaridek aniq keltirilmagan ekan.

Xulosalar

Erk muxtoriyati prinsipi xalqaro xususiy huquqda taraflar erkinligini ta'minlab beruvchi prinsip hisoblansa ham prinsip faoliyatiga tashqi ta'sirlar mavjud. Bu tashqi ta'sirlar prinsip faoliyatiga cheklov qo'yib undan foydalanuvchilarning imkoniyatlarini kamaytiradi.

Bular nizolar uchun taalluqli bo'lgan mamlakat huquqi, mazkur mamlakat huquqining majburiy qoidalari va nizolar ko'rilayotgan mamlakatning milliy sudlari hamda mamlakatning ommaviy siyosatidir. Ushbu tashqi ta'sirlar ham faqatgina taraflar manfaati bilan ularning manfaati zid kelgandagina prinsipning qamrovini

cheklashi mumkin. Aks holda esa taraflar o'zlari yaratgan yopiq aylana doirasida erkin harakat qilishlari mumkin.

Erk muxtoriyati prinsipidan foydalanishning asosiy sabablaridan biri taraflarning o'z xohishlari asosida qonuniy munosabatlar yurita olish uchun tanlovlaridir. Taraflar erk muxtoriyati prinsipini tanlash barobarida o'zlari uchun kichik bir erkin harakatanish doirasini ham yaratadi.

Mana shu taraflar uchun erkin harakatlanish doirasini kengaytirish uchun nizolar uchun qo'llaniladigan huquqni tanlash imkoniyati tushunchasi kengaytirilishi lozim. Amaldagi qonunlar asosida shartnomalashuvchi taraflar faqatgina o'zlari yashab turgan mamlakat qonunlarini yoki munosabatlarining maqsadlari bilan bog'liqlikdagi mamlakatlar qonuni munosabatlar uchun qo'llashi mumkin. „Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish yuzasidan Nyu York Konvensiyasi“da taraflar shartnomalarida nizolar uchun qo'llaniladigan huquqni tanlayotganlarida, tanlanayotgan huquq o'rtasida bog'liqlik bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Agar taraflar shu talabga amal qilmaganlarida esa, nizolarga tashqi ta'sirlar sodir bo'lishi mumkin.

Erk muxtoriyati prinsipi asosida taraflarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun taraflarning shartnomalar o'z-o'zi uchun yetarli (self –sufficient) deb baholanganida taraflar nizolari uchun bog'liqligidan qat'i nazar istalgan huquqni tanlash imkoniyatini berish lozim. Ana shunda taraflarning harakatlari ikki taraf uchun ham manfaatli amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mills A. Party Autonomy in Private International Law, Cambridge University Press, 2013, pp.580.
2. Bermann P. Global legal pluralism: a jurisprudence of law beyond borders, Cambridge University Press, 2012, pp.340.
3. Basedow J. The Hague Principles on Choice of Law: their addressees and impact, Uniform Law Review, 2017, pp.304.
4. Saumier G. Designating the UNIDROIT Principles in International Dispute Resolution, Uniform Law Review, 2012, pp.203.
5. Saumier G. The Hague Principles and the Choice of Non-State “Rules of Law” to govern an International Commercial Contract, Brooklyn Journal of International Commercial Law, 2014, no 40, pp.125.
6. Hook M. The choice of law agreements as a reason for exercising jurisdiction, International and Comparative Law Quarterly, 2017, pp.315.
7. Strong S. I. What Constitutes an “Agreement in Writing” in International Commercial Contracts: Party Autonomy, International Jurisdiction, and the Emerging third way, Columbia Journal of Transnational Law 2006, no.44, pp. 517-520.
8. Blessing M. Mandatory rules of law versus Party Autonomy in International Arbitration, Journal of International Arbitration, 1997, no 14, pp. 35-36.
9. Symenoids S. The Hague Principles on Choice of Law for International Contracts: Some Preliminary Comments, American Journal Comparative Law, 2013, no.10, pp.23-25
10. Hanotiau B. The law applicable to arbitrability, Singapore Academy of Law Journal, 2016, no 9, pp.40-42.
11. Teitz L. E. The Hague Choice of Court Convention: Validating Party Autonomy and Providing an Alternative to Arbitration, 2013, no 53, pp.130-132.
12. Hartley Choice of court agreements and the New Brussels I Regulation, Law Quarterly Review, 2013, no. 20, pp.45-48.
13. Vogenaur S. Regulatory Competition through, European review of Private Law, 2010, no 31, pp. 120-123.
14. Johns F. Performing Party Autonomy, American Journal of Comparative Law, 2012. No.71, pp. 78-80.
15. Voser N. Mandatory Rules of Applicable in International Commercial Arbitration, American Review of International Arbitration, 2015, no 11, pp. 63-65.

16. Wright M. J. Enforcing forum-selection clauses: An examination of the examination of the current of Federal Forum – Selection Clause Jurisprudence and a Proposal for Judicial Reform, *Loyola of Los Angeles Law Review*, 2013, no 24, pp.72-75.

17. Garnett R. Coexisting and conflicting jurisdiction and arbitration clauses, *Journal of Private International Law*, 2013, no 9, p. 361-362.

18. Zhang M. Party Autonomy and Beyond: An international perspective of contractual choice of law, *Emory International Law Review* 2013, no. 9, pp. 67-69.

19. Brussels I Regulation with Amendments. Available at <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex%3A32012R1215>.

20. Pavlovic. M. Contracting out of access to justice: enforcement of forum-selection clauses in consumer contracts, *McGill Law Journal*, 2016, no 12, pp. 62-65.

21. Reese. W.L.M. Power of parties to choose law governing their contract, *Proceedings of the society of International Law at its Annual Meeting*, 1960, no 54;

22. Sasson. S. Substantive Law in Investment Treaty Arbitration: the unsettled relationship between international and municipal law, 2010, no 15, pp. 123-125;

23. Shore. L. The United States’s Perspective “Arbitrability” : International and Comparative Perspectives, *Kluwer Law International*, 2009, no 22, pp. 395-397;

24. Triebel V. The choice of Law in Commercial Relations: A german perspective, *International and Comparative Law Quarterly*, 1998, no 2, pp. 309-312.

25. Viescher F. General Course on Private International Law, *International and Comparative Law Quarterly*, 2017, no 2, pp. 3019-322.

26. Tu. G. The Hague Choice of Court Convention: A Chinese Perspective, *Journal of International Arbitration*, no 5, pp. 123-125.